

HARBIY MOJAROLARDA HARBIY XIZMATCHILARDAGI AXLOQIY- RUHIY CHIDAMLILIKNI TADQIQ ETISH FENOMENOLOGIYASI: XORIJIY HARBIY-PSIXOLOGIK TADQIQOTLAR MISOLIDA

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi
universiteti magistratura tinglovchisi leytenant
Abduvasiyev Botirjon Baxtiyor o'g'li*

Annotatsiya: Zamonaviy davr insoniyatni oldida turgan global va fundamental muammolarga nisbatan qarashlarni tubdan yangilashni talab etmoqda. Harbiy-siyosiy jarayonlarning keskin o'zgarishi, geosiyosiy raqobatning kuchayishi, yangi xavf-xatarlar shaklining paydo bo'lishi davlat boshqaruvi, milliy xavfsizlik va harbiy tizimlarning qayta tashkil etilishini taqozo etmoqda. Shu jarayonda inson omilining, xususan, harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligi davlat mudofaa qudratining muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda.

Kalit so'zlar: axloqiy-ruhiy tayyorgarlik, geosiyosiy vaziyat, harbiy xizmatchi, shaxs profili, stress, bardoshlilik, professionalism.

ФЕНОМЕНОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ МОРАЛЬНО- ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ УСТОЙЧИВОСТИ ВОЕННОСЛУЖАЩИХ: НА ПРИМЕРЕ ЗАРУБЕЖНЫХ ВОЕННО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ

Аннотация: Современная эпоха требует коренного обновления взглядов на глобальные и фундаментальные проблемы, стоящие перед человечеством. Резкие изменения в военно-политических процессах, усиление геополитической конкуренции, появление новых угроз и вызовов требуют перестройки системы государственного управления, национальной безопасности и военной организации. В этих условиях человеческий фактор, в частности морально-психологическая подготовка и духовная устойчивость военнослужащих, становится важнейшей составляющей оборонного потенциала государства.

Ключевые слова: морально-психологическая подготовка, геополитическая ситуация, военнослужащий, стресс, жизнестойкость (hardiness), профессионализм, психологическая устойчивость.

THE PHENOMENOLOGY OF MORAL AND PSYCHOLOGICAL HARDINESS AMONG MILITARY PERSONNEL: BASED ON FOREIGN MILITARY-PSYCHOLOGICAL RESEARCH

Abstract. The modern era requires a fundamental rethinking of global and strategic challenges facing humanity. Rapid changes in geopolitical and military processes, the intensification of international competition, and the emergence of new threats necessitate the restructuring of state governance, national security, and military systems. Within this context, the human factor—specifically the moral and psychological preparedness and hardiness of military personnel—has become a vital component of a nation’s defense capability.

Keywords: moral and psychological readiness, geopolitical situation, military personnel, stress, hardiness, resilience, professionalism, psychological stability.

Kirish. Global harbiy-siyosiy muhitning o‘zgaruvchanligi va xavf profili (maxsus harbiy operatsiyalar, gibriddahdidlar, favqulodda holatlar) harbiy xizmatchidan psixologik barqarorlik, irodaviy chidam va axloqiy-ruhiy tayyorgarlikning yuqori darajasini talab qiladi. Xorijiy tadqiqotlar chidamlilikning shaxsiy farovonlik, stressga bardoshlilik va xizmat samaradorligi bilan ijobiy bog‘langanini ko‘rsatadi hamda PTSD simptomatologiyasini yumshatish, uyqu sifati, sog‘liq ko‘rsatkichlari va liderlik ta‘sirini yaxshilash bilan ham aloqadorligini ta‘kidlaydi [1].

Insonning moddiy, ma‘naviy va axloqiy qadriyatlar tizimidagi chuqur o‘zgarishlar, zamonaviy axborot-psixologik bosimlar va urushlarning yangi shakllari fonida harbiy xizmatchining ichki ruhiy holatini, ma‘naviy barqarorligini, kasbiy burchga sadoqatini ta‘minlash masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Har qanday harbiy topshiriqning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan shaxsning axloqiy-ruhiy tayyorgarlik darajasi, ya‘ni u o‘z faoliyatining ma‘nosini qay darajada anglaganiga, stressli sharoitda irodaviy-psixologik barqarorlikni saqlay olishiga bog‘liqdir.

Metodologiya. Axloqiy-ruhiy tayyorgarlik bu shaxsning ma‘naviy qadriyatlarga sodiqligi, psixologik barqarorligi, irodaviy mustahkamligi va kasbiy burchni bajarishda ongli motivatsiyasi bilan belgilanadigan integrativ holatdir. U harbiy jamoaning birdamligini ta‘minlaydi, rahbar va bo‘ysunuvchilar o‘rtasida ishonch va sadoqat muhitini shakllantiradi, shaxsning ruhiy kuchlarini real xatti-harakat va xulqqa aylantiradi. Shu jihatdan, axloqiy-ruhiy tayyorgarlik Qurolli Kuchlar tizimida barqarorlik va ishonchlilikni ta‘minlovchi asosiy psixologik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. U nafaqat harbiy xizmatchining individual ruhiyatiga, balki bo‘linma jipsligiga, texnik tayyorgarlikka va boshqaruv samaradorligiga ham bevosita ta‘sir ko‘rsatadi.

Biroq bu jarayon murakkab, ko‘p omilli va ziddiyatli xarakterga ega. Harbiy sharoitdagi axloqiy-ruhiy holatga ijtimoiy-siyosiy muhit, ma‘naviy qadriyatlar tizimi, rahbarlik uslubi, shaxsning ichki motivatsiyasi va psixologik himoya mexanizmlari bir vaqtning o‘zida ta‘sir ko‘rsatadi. Ushbu omillarni uyg‘unlashtirish va muvozanatlashtirish axloqiy-ruhiy tayyorgarlikni takomillashtirishning muhim sharti

hisoblanadi. Mazkur muammo kompleks, tarmoqli va ko‘p qirrali xarakterga ega bo‘lib, falsafa, psixologiya, pedagogika, sotsiologiya, siyosatshunoslik va harbiy etika fanlarining o‘zaro integratsiyasini talab etadi. Chunki axloqiy-ruhiy tayyorgarlik shaxsning faqat individual psixologik sifatlarini emas, balki jamiyatdagi ma‘naviy muhitni, davlatning mafkuraviy siyosatini va jamoaviy psixologik qadriyatlarni ham qamrab oladi. Bugungi kunda falsafiy-psixologik adabiyotlarda axloqiy-ruhiy tayyorgarlik muammosi tobora dolzarb mavzuga aylanmoqda. Bu, bir tomondan, jamiyatda kechayotgan ma‘naviy transformatsiyalar, ikkinchi tomondan, davlat rahbariyati, harbiy qo‘mondonlar va psixologik xizmat mutaxassislarining ushbu masalaga strategik ahamiyat berayotgani bilan izohlanadi. Harbiy xizmatchining axloqiy-ruhiy tayyorgarligi nafaqat jangovar harakatlar sharoitida, balki tinchlik davridagi xizmat faoliyatida ham uning professional barqarorligi, intizomi, mas‘uliyati va xizmatga sadoqatining psixologik tayanchidir. Shu bois bu yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlar zamonaviy harbiy psixologiyaning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e‘tirof etilmoqda [15].

Harbiy xizmat ko‘plab xavf va stressorlar bilan xarakterlanadi; jangovar harakatlar ekstremal sharoitlarning eng keskin ko‘rinishidir. Shu bois harbiy xizmat uchun stressga chidamli, “sog‘lom” qolib samarali faoliyat yurita oladigan shaxslarni tanlash va tayyorlash muhimdir. A.G.Thomassen, S.W. Hystad, B.H. Johnsen, G.E. Johnsen, J.C. Laberg, J. Eid (2015) ruhiy chidamlilik va jipslikning (cohesion) ruhiy salomatlik bilan bog‘liqligini o‘rganishda ko‘p ishlar boshlang‘ich simptomlarni hisobga olmayotganini tanqid qiladi. Norvegiya harbiylarining Kosovo tinchlikparvar missiyasida prospektiv modelda o‘tkazilgan tadqiqot natijasida ruhiy chidamlilik ham, jipslik ham stressga qarshilikni yaxshilashi aniqlandi. Ruhiy chidamliligi yuqori bo‘lganlarda jipslik darajasi ruhiy shikoyatlarning oshishiga ta’sir ko‘rsatmagan; ruhiy chidamliligi past bo‘lganlarda esa yuqori jipslik shikoyatlarni kamaytirgan [2]. I.C. Giurcă, A. Căţană, R. Sassu, M.D. Bucută (2017) jangovar hududdagi xizmatning (asosiy stress omili) salomatlikka ta’siri keng tadqiq qilingan bo‘lsa-da, veteranlardagi muammolarni oldini oluvchi himoya omillari nisbatan kam o‘rganilgan. Mualliflar Afg‘onistonga yuborilayotgan harbiylarda ruhiy chidamlilik, koping strategiyalari va ruhiy salomatlik ko‘rsatkichlari (stress va xavotir) o‘rtasidagi bog‘liqlikni, missiyaga qadar baholagan [3].

S.R. Maddi, M.D. Matthews, D.R. Kelly, B. Villarreal, K.K. Gundersen, S.C.M. Savino (2017) Vest-Poynt kadetlarida ruhiy chidamlilik akademik muvaffaqiyat va kontingentni saqlab qolish (attritsiyaga qarshi turish) omili sifatida iroda kuchidan ko‘ra ko‘proq bashorat qiluvchi ekanini ko‘rsatdi [4]. S. Lo Bue, S. Kintaert, J. Taverniers, J. Mylle, R. Delahaij, M. Euwema (2018) 22 haftalik bazaviy tayyorgarlik kursida 233 kadet misolida ruhiy chidamlilikning qat’iyat (persistensiya) va jismoniy ish qobiliyatiga ta’sirini o‘rgandi. 2 oyda kursni davom ettirganlar ruhiy chidamlilik

shkalasida yuqoriroq ball ko'rsatdi; o'zini himoya qilish mashg'ulotlarida ruhiy chidamlilik jismoniy ko'rsatkichlarni ham ijobiy prognoz qildi [5]. Xitoy tadqiqotchilari (2019) ruhiy chidamlilik va depressiya simptomlari o'rtasidagi bog'liqlikda yutuqqa erishish/omadsizlikdan qochish motivatsiyasining vositachilik rolini (harbiylar va kadetlar namunalarida) ko'rsatdilar: past ruhiy chidamlilik va past xulqiy faollashtirish, yuqori xulqiy tormozlash bilan birga, depressiya simptomlari kuchliroq bo'ladi [5].

Natijalar. Harbiy xizmatchilarning axloqiy-psixologik tayyorgarligi turli davlatlarning armiyalarida turlicha yo'lga qo'yilgan. AQSh va Rossiyada bunday tayyorgarlik jang va jismoniy tayyorgarlik jarayonida, odatda, maxsus o'quv markazlari va poligonalarda amalga oshiriladi. Buyuk Britaniyada axloqiy-psixologik tayyorgarlikka alohida e'tibor tanlov jarayonida va asosiy harbiy-professional tayyorgarlik bosqichida qaratiladi (britaniya armiyasi to'liq ixtiyoriy-kontrakt asosida shakllantirilishini yodga olish lozim). Germaniyada bu tayyorgarlikning eng maqbul vaqti sifatida bo'linma va qismlarning jangga yaroqlilik jarayonlari ko'riladi. Yaponiya "o'zini himoya kuchlari"da esa axloqiy-psixologik tayyorgarlik xizmat vaqti davomida, xususan mashg'ulotlar va manevrlar paytida muntazam olib boriladi [6].

Hozirgi vaqtda harbiy mutaxassislar axloqiy-psixologik tayyorgarlikning quyidagi tipik sxemasini taklif qiladilar. Boshlang'ich bosqichda odatda o'ziga xos psixoterapevtik yondashuv qo'llaniladi. Bu shuni anglatadiki, o'qitish jarayonida maxsus sharoitlar yaratiladi va bu sharoitlar harbiy xizmatchilarda salbiy ruhiy holatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Yangi xizmatga qabul qilingan askarda jangga yaqin muhitda u ko'pincha o'ziga bo'lgan ishonchini yo'qotadi, apatiya yoki depressiyaga tushadi, qo'rquv sezadi. Bunday holatda ba'zan bosh aylanishi, qayt qilish, qo'l-oyoqlarning uyqalanishi kabi og'riqli sindromlar paydo bo'ladi. Natijada u ovqat yemaydigan, uyqusiz qoladigan, xizmat majburiyatlarini unutadigan, intizomiy xato qiladigan yoki hatto desertirlikka yo'l qo'yadigan bo'lishi mumkin [7].

Ammo o'qitish davrida bunday hodisalar jiddiy xavf tug'dirmaydi. Askarlarga qo'rquvni bosishni, apatiyani va boshqa salbiy emotsiyalarni yengishni o'rgatadilar, ularda eng oddiy o'zini nazorat qilish ko'nikmalari shakllantiriladi. Ana shunday bosqichni mutaxassislar "psixoterapiya" deb ataydilar. U orqali tashqi namoyon bo'lgan salbiy ruhiy holatlarni jilovlashga o'rgatiladi, biroq ularning ildizini butunlay yo'qotish odatda amalga oshmaydi. Aynan shu holat psixologik urush bo'yicha mutaxassislar tomonidan dushman safidagi shaxsiy tarkibga ta'sir o'tkazishda hisobga olinadi [8].

Tahlil. Axloqiy-psixologik tayyorgarlikning ikkinchi bosqichi "psixologik rag'batlantirish" tadbirlarini o'z ichiga oladi. Uning mohiyati harbiy xizmatchilarni jang sharoitida o'z kasbiy vazifalarini ishonch bilan bajarishga odatlantirishdir. Shu maqsadda jangovar tayyorgarlik jarayonida instruktorlar askarlarga jismoniy,

psixologik va axloqiy ta'sirlar zanjirini yuboradilar; bu ta'sirlarning yakuniy natijasi orqali organizmda haddan tashqari tormozlanish holati yuzaga keladi. Askarlarda iroda deyarli sindiriladi ular so'zma-so'z hech narsa qila olmaydigan ahvolga keladi. Bunday vaziyatda instruktorlar personalga yordam berib, ularning psixikasini normallashtirishi, buyruqlarni to'g'ri qabul qilib, har qanday holatda ham bajara olishga o'rgatishi lozim [9].

AQSh Qo'shinlarida axloqiy-psixologik tayyorgarlik quyidagi majburiy elementlarni o'z ichiga oladi: psixologik, tarbiyaviy va madaniy-dam olish ishlarini tashkil etish va boshqalar. AQSh Qurolli Kuchlarining axloqiy-psixologik tayyorgarlik vazifalari:

- jismonan chidamli va psixologik jihatdan mustahkam harbiy xizmatchilarni tarbiyalash, jang va yurish hayotining qiyinchiliklarini muvaffaqiyatli yengish qobiliyatini shakllantirish;
- ekstremal sharoitlarda maydon jangida harakat qilish imkonini beruvchi barqaror kasbiy-jangovar ko'nikmalarni rivojlantirish;
- kuchli qarshilik ko'rsatishi mumkin bo'lgan raqibga qarshi kurashga psixologik tayyorgarlikni hosil qilish;
- bo'linmalar, ekipajlar va hisoblar ijtimoiy-psixologik birligini ta'minlash. [10].

Rossiya Qurolli Kuchlari va chet el armiyalari psixologik tayyorgarliklarini solishtirganimizda, RSF (Rossiya) tizimida muhim tarbiyaviy yo'nalish sifatida jamiyat-davlat yondashuvi ajralib turadi. Bu yondashuv harbiy xizmatchilarda yuksak axloqiy sifatlarni, harbiy burchni anglashni, vatan tarixiga va diagnostik an'analarga hurmatni shakllantirishga qaratilgan. AQSh tizimida esa bu yo'nalish ko'proq "amerikanizatsiya" harbiy xizmatchilarning madaniy-dunyoqarashi va ongini shakllantirishga qaratilgan jihat bilan xarakterlanadi [11].

Harbiy-psixologik tadqiqotlar chet el armiyalarida axloqiy-psixologik holatga ijobiy va salbiy ta'sir etadigan omillarni aniqladi.

Ijobiy omillarga quyidagilar kiradi:

- yuqori darajadagi shaxsiy professional tayyorgarlik va uni doimiy oshirishga intilish;
- o'z davlat tuzumining afzalliklariga sodiqlik;
- mamlakat va uning Qurolli Kuchlariga tegish hissi, g'urur;
- harbiy qism va Qurolli Kuchlar an'analarga sodiqlik; qurol-aslahaga ishonch;
- harakat boshlanishiga yuqori psixologik tayyorgarlik.

Muhokama. Tadqiqotchilar ta'kidicha, yuqorida aytilgan ijobiy omillar ko'proq urush an'analarga boy, janglarda ishtirok etgan, rivojlangan davlat g'oyaviy tizimi va ijtimoiy farovonlikka ega bo'lgan armiyalarda kuzatiladi. Salbiy omillarga quyidagilar kiradi:

- moddiy rag‘batlantirishga ortiqcha qiziqish va axloqiy-tarbiy ishlarni chetga surish;
- dushmanga nisbatan e‘tiborsizlik, o‘z kuchlarini ortiqcha baholash, qulayliklarga ortiq muhabbat;
- jang davomida tashabbusni yo‘qotish, bu APS (axloqiy-psixologik sog‘lomlik) darajasini pasaytirishi mumkin;
- irqiy taxminlar, kuchli individualizm, karyerizm, separatsiya va munosabatlarda keskinlik;
- alkogol va giyohvand moddalar iste‘mol qilinishi;
- ayol harbiylarga nisbatan jinsiy tajovuzlar.

NATO mamlakatlarida axloqiy-psixologik tayyorgarlik jarayonlarida psixologik tayyorgarlikning nazariy-metodologik asoslarini tadqiq etishga va tarixiy jang tajribasini tahlil qilishga alohida e‘tibor qaratiladi. Bu sohada yetakchi rol AQShga tegishli: NATO hududida 146 ta muassasa psixologik tayyorgarlik masalalarini o‘rganadi, ulardan 130 tasi AQShda joylashgan, jumladan 80 tasi bevosita Qurolli Kuchlar tizimiga integratsiyalangan [12].

AQSh Qurolli Kuchlarida psixologik tayyorgarlikning maqsadi harbiy xizmatchilarning jang sharoitiga psixologik bardoshini rivojlantirish, guruhlarining psixologik birligini shakllantirish, tayyorgarlik va jang olib borish jarayonida psixologik qo‘llab-quvvatlashni ta‘minlash, psixologik yo‘qotishlarni kamaytirish hamda psixoreabilitatsiya tadbirlarini o‘tkazishdir. AQShdagi psixologik tayyorgarlik tarkibiy qismlari:

- jangovar faoliyatga tayyorgarlikdan oldingi psixologik tanlash va psixodiagnostika;
- jang va jismoniy tayyorgarlik jarayonida psixologik bardoshlikni shakllantirish;
- tayyorgarlik va jang davomida psixologik qo‘llab-quvvatlash;
- psixologik yo‘qotishlarni prognozlash va kamaytirish;
- psixokorreksiya va psixoreabilitatsiya.

Jangda qo‘shinlarning psixologik chidamliligini oshirishda yetuk tanlash muhim vazifa hisoblanadi. AQSh Qurolli Kuchlarida psixologik tanlov amaliyoti 1917-yildan boshlab joriy etilgan. Dastlab bu tekshiruvlar asosan ofitserlikka nomzodlarga tatbiq etilgan bo‘lsa, hozirgi kunda bu amaliyot nufuzli suboffitserlar, warrant-offitserlar, serjantlar va oddiy askarlarga ham kengaytirilgan.

Karayanining fikricha, chet el armiyalardagi psixologik tayyorgarlik dunyo va cheklangan urush sharoitida faol kurash olib borishga, istalgan tabiiy-geografik va iqlim sharoitlarida qo‘shinlarni boshqarish va qo‘rquv hamda panika bilan kurashish, guruh jipsligini mustahkamlash hamda uzluksiz va qat‘iy boshqaruvni ta‘minlashga qaratilgan [13]. Polkovnik M.Zelenkov muallifligida ta‘kidlangan asosiy omillar,

harbiy xizmatchilarning axloqiy-psixologik holatini yaxshilashga xizmat qiladi deb hisoblanadi:

- harbiy-sanoat salohiyatini mustahkamlash va uni milliy xavfsizlik talablariga mos darajada saqlash;
- ilmiy-texnik yutuqlardan harbiy maqsadlarda foydalanish va harbiy-sanoat kompleksini rivojlantirish;
- barcha darajadagi shaxsiy tarkibning axloqiy-psixologik tayyorgarligini intensivlashtirish, bu masalalarni operativ va jangovar tayyorgarlik doirasida ustuvor ravishda o‘rganish;
- shtab va qo‘shinlarning operativ-jangovar tayyorgarlik jarayonlarini takomillashtirish;
- harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, xususan moddiy rag‘batlantirishni oshirish;
- harbiy boshqaruv organlarining professional kompetensiyasini oshirish;
- shaxsiy professional tayyorgarlik darajasini yuqori darajada saqlash va rivojlantirish;
- o‘z davlat tuzumining ajralmasligi haqidagi shubhasiz e‘tiqod;
- mamlakat va Qurolli Kuchlarga tegish hissi va g‘urur;
- bo‘linma an‘analariga sodiqlik; qurollarning sifatiga ishonch; jang boshlanishiga yuqori psixologik tayyorgarlik [14].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ilmiy manbalar va amaliy tajribalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, jangovar faoliyatga psixologik tayyorgarlik jangga kirishdan oldin harbiy xizmatchilarda oldindan psixologik tayyorgarlik (barqarorlik)ni shakllantirish bu psixologik sifatlar tizimi (bilim, ko‘nikma, qarashlar, mahorat, e‘tiqodlar, motivlar, shaxsiy xususiyatlar) bo‘lib, u kishi qiyinchiliklarni yengish va topshiriqni muvaffaqiyatli bajarish imkonini belgilaydi, maxsus jangovar topshiriqni bajarish paytida qisqa muddatli psixologik tayyorgarlik jangga ruhiy tayyorlik holatini shakllantirish (aktivlik, maqsadga yo‘naltirilish, mobilizatsiya, psixikaning moslashuvi), insonlarni taqsimlash shunday tashkil etilsinki, harbiy jamoa o‘z a‘zolari uchun o‘ziga xos rag‘batlantiruvchi va «psixoterapevtik» vazifani bajarishga yordam beruvchi mexanizm bo‘lib xizmat qilsin, dushmanning qarshiligini sindirish, jamiyat fikrini belgilangan jangovar maqsadlarni qo‘llab-quvvatlash tomonida shakllantirish va boshqalarni nazarda tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Azarian A., Farokhzadian A.A., Habibi E. Relationship between psychological Hardiness and Emotional Control Index: A Communicative Approach. International Journal of Medical Research and Health Sciences, 2016, 5, 5 (S), pp. 216-221.
2. Bartone P. T. Resilience under military operational stress: Can leaders influence hardiness? Military Psychology, 2006, vol. 18, pp. 131-148.

3. Bartone P.T., Eid J., Hystad S.W. Training hardiness for stress resilience. In book: Maheshwari N., Kumar VV (Eds.) Military psychology: Concepts, trends and interventions. New Delhi, 2016, pp. 231-248.
4. Bartone P.T., Kelly D.R., Matthews M.D. Psychological hardiness predicts adaptability in military leaders: A prospective study. International Journal of Selection and Assessment, 2013, vol. 21, № 2, pp. 200-210.
5. Bartone P.T., Valdes J.J., Sandvik A. Psychological hardiness predicts cardiovascular health. Psychology. Health & Medicine, 2016, vol. 21, № 6, pp. 74-749.
6. Giurca I.C., Catana A., Sassu R. [et al.] The coping, the hardiness, and the sense of coherence as maintaining factors for military personnel's mental health. TPM: Testing, Psychometrics, Methodology in Applied Psychology, 2017, vol. 24, № 3, pp. 349-361.
7. Hamre K.V., Einarsen S.V., Hoprekstad O.L. [et al.] Accumulated Long-Term Exposure to Workplace Bullying Impairs Psychological Hardiness: A Five-Year Longitudinal Study among Nurses. International Journal of Environmental Research and Public Health, 2020, vol. 17, № 7, 2587.
8. Halata O.S. Educational persistence and hardiness of university students. The European Journal of Education and Applied Psychology, 2020, № 1, pp. 35-39.
9. Hystad S.W., Olsen O.K., Espevik R. [et al.] On the stability of psychological hardiness: a three-year longitudinal study. Military Psychology, 2015, vol. 27, № 3, pp. 155-168.
10. Зеленков М. Морально-психологическая подготовка войск в армиях зарубежных стран.
11. Караяни А.Г., Корчемный П.А. Психологическая подготовка боевых действий: учебное пособие. - М.: ВУ, 2015.
12. Лепешинский И.Ю., Глебов В.В., Листков В.Б., Терехов В.Ф. Основы военной педагогики и психологии, 2011.
13. Морально-психологическое состояние военнослужащих противника.
14. Разработка теории и технологий психологической подготовки военнослужащих к боевым действиям. Электронный ресурс.
15. Ригг Р. Боевая подготовка войск (организация и проведение подготовки войск в условиях, приближенных к боевой действительности). Электронный ресурс.